

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima’i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

UDC 845.711.05

KBK 133.585.3

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of Philological Sciences, Academician

Editorial Board:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Türkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiq Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khaliiyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.

This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

© "Nurafshon business", 2025.

MUNDARIJA

1.	<i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i> IKKI BUYUK – IKKI TURK (<i>Kirishso'z ornida</i>)	15
I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIYYAT VA TIPOLOGIYA		
2.	<i>Узоқ ЖЎРАҚУЛОВ.</i> МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ	20
3.	<i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i> “ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ	48
4.	<i>Сувон МЕЛИ.</i> “ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И	57
5.	<i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i> THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVA'I'S PERSIAN RUBAIYAT	68
6.	<i>Münevvər TEKCAN.</i> ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE	79
7.	<i>Сергей НИКАНОРОВ.</i> К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ	90
8.	<i>Мақсуд АСАДОВ.</i> НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ	99
9.	<i>Шоира АҲМЕДОВА.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА	107
10.	<i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i> ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА	116

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнұр АНАПИНА.</i>	
11.	ӘДЕБИЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ӘЛІШЕР НАУАИМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	НАВОЙИ ВА РУМИЙ ИЖОДИНИНГ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI	137
	<i>Илҳом ҒАНИЕВ.</i>	
14.	ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY	174
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR	182
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ	187
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
21.	ҲАЗРАТИ МАВЛОНОНИНГ “МАЖОЛИСИ САБЪА” (“ЕТТИ МАЖЛИС”) АСАРИДА НАЪТ	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	“OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB” OBRAZI GENEZISI	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD”DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA O'TKAZISHDAGI ROLI	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> RUMİY VA NAVOIY LIRIKASIDA KO'NGIL METAFORASI	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> MAVLAVIY "GIRDI DARVESHLAR"NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI	231

II SHO'BA SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA MUAMMOLARI

28.	<i>Улуғбек ҲАМДАМ.</i> ГЛОБАЛ ДУНЁДАГИ ЙЎЛЧИ ЮЛДУЗЛАР	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> ALİ ŞİR NEVÂYÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAİRİN POETİKASINA KATKILARI	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RİYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIİY TALQINI	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI	275
32.	<i>Вусала НАСИБОВА.</i> КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	285
34.	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> НҮРЛАН МӘУКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТҮРІ	289
35.	<i>Олим ОЛТИНБЕК.</i> РАУФ ПАРФИ ШЕЪРЛАРИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИ	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> FERAĞI'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE	312

Dilrabo QUVVATOVA,
filologiya fanlari doktori, professor
(BuxDU, O'zbekiston)

MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI

Annotatsiya: Sharq mumtoz poetikasida har bir she'r na'vi – lirik janrlar nazariyasiga oid qarashlar alohida ilmiy tizimni tashkil etadi. Bu yo'nalishdagi fikrlar Sharqda she'riyatning nihoyatda yuksak taraqqiy etganligini yana bir karra isbotlab turadi. Masnaviy janri va shakli bilan bog'liq nozik kuzatishlar shu jihatdan e'tiborga sazovor. Maqolada Shayx Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Izzat Sulton, Botirxon Valixo'jayev, Rahmonqul Orzibekov kabi o'zbek, Sh.Pulatova, I.Pavlova singari rus olimlarining shu yo'nalishdagi adabiy-nazariy qarashlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Sharq adabiy-nazariy tafakkuri, masnaviy, adabiy shakl, g'azal, doston, aruz, qofiyalanish, manzum qissalar, voqeabandlik, poema.

Abstract: In the classical poetics of the East, each type of poetry – views on the theory of lyrical genres constitute a separate scientific system. Thoughts in this direction once again prove that poetry in the East has reached an extremely high level of development. The subtle observations related to the genre and form of the masnavi are noteworthy in this regard. The article examines the literary and theoretical views of Uzbek scholars such as Sheikh Ahmad Taraziy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Izzat Sultan, Botirxon Valikhudzayev, Rahmonkul Orzibekov, and Russian scholars such as Sh. Pulatova, I. Pavlova in this direction.

Keywords: Eastern literary and theoretical thinking, masnaviy, literary form, ghazal, epic, aruz, rhyming, verse stories, narrative, poem.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida 20 ga yaqin lirik janr bor. Bu janrlar tabiati, spetsifikasi turli davrlarda nazariy jihatdan o'rganilgan. Bu haqda taniqli adabiyotshunos Hamidulla Boltaboyev yozadi: "Sharq adabiy-nazariy tafakkurining qariyb ming yildan tarixiga ta'riflarni nazar tashlaganda, bizga ma'lum bo'lgan nazariy hodisalar, adabiy qarashlar va go'zal bir majmuaga yig'ishdan maqsad kelgusida bu fikriyat durdonalaridan adabiy xulosalar, nazariy umumlashmalar yaratish orqali shu vaqtga qadar o'zaro qarama-qarshilikda tushuntirilgan dunyoning ikki qutbi Sharq-u G'arbdagi natijasida adabiy-nazariy tafakkur durdonalarini yig'ib, izchil bir tizimga solish va buning yaxlit bir adabiyot nazariyasi yaratmoqdan iboratdir"

[1, 14]. Binobarin, masnaviy haqidagi qarashlarni bir tizimga solish, uning mumtoz adabiyotimizda tutgan mavqeyini u yoki bu darajada belgilash zarur bo'ladi. Adabiyotshunoslikda masnaviy janri asosida adabiy shakl ham yuzaga kelgan va yirik hajmli asarlarni yozishda undan foydalanilgan. Shu jihatdan masnaviy janri va shakli farqlanadi. Zero, masnaviy janri na'munalari mumtoz adabiyotimizda hajman o'rtacha g'azaldan kattaroq bo'lgan, a-a, b-b, v-v, g-g va h.k. tarzida qofiyalanadigan mustaqil lirik janrlardan biri bo'lsa, masnaviy shakli unga xos qofiyalanish tizimini o'zida saqlagan keng hajmli liro-epik asarlar qurilishini anglatadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida, umuman, Sharq adabiyotida dostonlarni masnaviy shaklida yaratish ko'p asrlik an'ana hisoblanadi, Jumladan, yirik hajmli asarlarni masnaviyda bitish Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidan boshlangan. Bu haqda H.Boltaboyev shunday yozadi: "Qutadg'u bilig" 6329 baytdan iborat, masnaviy (aruzning vaznida yozilgan. "mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan" [1, 21]

Jumladan,

Uqushlig' uqar – ul biliglig bilir

Biligli uqug'li tilakka tegir [1, 23]

Masnaviydagi baytlar o'zaro qofiyalanishi inobatga olinsa, yuqoridagi baytda "bilir", "tegir" fe'llari ohangdoshlik kasb etgan. Yoki "Hibat ul-haqoyiq" ham quyidagicha boshlanadi:

Bitidim kitabi mava'iz masal

O'qusa tatir til yyemish tek asal (1, 40)

Shu bilan birga, Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy", Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari xuddi shu she'riy shaklda yaratilgan bo'lib, ularda voqelik epik usulda bayon etilgan. Shuning uchun Shayx Ahmad Taroziy masnaviy haqida shunday yozadi: "Masnaviy iki misra" bo'lur. Ikalasi muqaffo (qofiyalangan), netokkim, manzum qissalarni masnaviy qilibturlar" [1, 122]. Mutafakkir olim masnaviy janri tabiatiga xos ikki muhim xususiyatni: uning ikki misradan tuzilishi va o'zaro "muqaffo" – qofiyalanishi, ohangdosh bo'lishini, manzum qissalar – epik poeziya na'munalari, dostonlar shu shaklda yozilishini alohida qayd etadi. Qolaversa, bu fikr hozirgi adabiyotshunosligimizdagi masnaviy janri va shakli haqidagi qarashning yuzaga kelishi uchun asos

vazifasini o'tagan. A.Taroziy fikrlarini davom ettirib, yana yozadi: "Va masnaviyning sharoitidin birisi uldurkim, agar hikoyatni nazm qilur bo'lsa, kerakkim, debochasin xo'b iborat va yaxshi tariqa birla ta'rif qilsa va sa'yye ko'rguzsakim, fotiha birla xotimasi pisandida kelgay [1, 122].

Alisher Navoiy masnaviy orqali voqelikni keng va batafsil, ya'ni epik ifoda etish mumkinligini inobatga olib, yozadi:

*...Lekin ul barchadin dag'i xubi,
Bor durur masnaviyning uslubi...
Masnaviykim burun dedim oni,
So'zda keldi vasi' maydoni [2,35].*

Bundan tashqari ulug' mutafakkir "Mezon ul-avzon"da "org'ushtak", "chinga", "turki" deb tilga olingan janrlar ham masnaviy kabi qofiyalanganligini kuzatish mumkin [1, 132].

Abdurauf Fitrat ham "dostonlar, maktublar (ko'brak sevgi maktublari) masnaviy yo'sinli yoziladir" deya e'tirof etar ekan, ayni choqda u masnaviyga xos yana bir jihatni alohida ta'kidlaydi: "...nazmning bu shakli shoirg'a ozodlik bergan. Turli hikoyalar, dostonlar, va'z-nasihatlarg'a oid uzun asarlar yozish uchun nazmning masnaviy shakli boshqa shakllarg'a qarag'anda qulayroqdir" [1,141]. Mutafakkir olim Sharq adabiyotida an'anaviylashgan masnaviy shaklining ijodda erkinlikni yuzaga keltirishi, yirik hajmli lirik asarlar shu shaklda yozilishini ko'rsatadi. Adib Izzat Sulton masnaviyning aynan shu xususiyatini nazarda tutib: "Voqeabandlik masnaviyning xarakterli xususiyatidir... She'r bilan yozilgan syujetli asar Navoiy va Bobur tomonidan "masnaviy" deb atalgan, ya'ni "masnaviy" liro-epik janrning nomi ham bo'lgan", - deb yozadi [3,179]. Adabiyotshunos Botir Valixo'jayevning ta'kidlashicha, o'zbek adabiyotining "XI-XIX asrlar mobaynidagi tarixida masnaviy tarzida qofiyalanish barcha dostonlarning xususiyati bo'lib qolgan" [4, 22]. Rahmonqul Orzibekov tadqiqotlarida lirik janrlar tasnifi uch yo'nalishda amalga oshirilgan: 1) mazmun jihatidan lirikaning janrlari; 2) shakl jihatidan va 3) misralar soni va band tuzilishiga ko'ra. Dastlabki jihatga hasbi hol, marsiya, chiston, sasida, muammo, vashf, yor-yor, bag'ishlov, debocha, nazira, faxriya va vasiyat she'rlari kiritilgani holda shakl jihatidan lirikaning janrlari sifatida mustazod, muvashshah, mushoira, shiru shakar, qit'a, g'azal,

tuyuq, ruboiy, masnaviy, fard, tarkibband va tarjiband keltiriladi [5, 9-10]. Adabiyotshunos shu jihatdan masnaviyni shakliy jihatdan lirikaning janrlari qatoriga kiritadi. Sh.Po'latova, I.Pavlova singari adabiyotshunoslar Muhammad Iqbol poemalarini o'rganar ekan, masnaviyni poemaga sinonim sifatida qo'llaydilar [6, 123]. Bundan ma'lum bo'ladiki, XX asr boshlari fors adabiyotida ham masnaviyni poema ma'nosida ishlatish urf bo'lgan. Adabiyotshunoslik lug'atida yozilishicha, "misralarning o'zaro qofiyalanishi masnaviyni voqealar bayoni uchun juda qulay shaklga aylantiradi". Shunga tayanib, kitobda masnaviy termini qofiyalanishiga ko'ra doston ma'nosida qo'llangani alohida ta'kidlangan [7,162]. Nazariyotchi olim Dilmurod Quronovning ushbu qarashlari adabiyotshunoslikda masnaviy haqidagi qarashlarga xotima yasaydi va u haqdagi hukmni yanada aniqlashtiradi.

Ko'rinadiki, Sharq mumtoz poetikasi va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi kuzatishlar masnaviy janri va shaklini qo'llash juda erta boshlanganligini, qadimiy asoslariga egaligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, adabiyotda epik tur janrlari yuzaga kelmagan davrlarda masnaviy shakli roman, qissa, hikoya yanglig' badiiy-estetik vazifa bajargan, voqeaband syujetlarni ifoda etishda qulay yo'l hisoblangan. Shu jihatdan ijodkorlarning masnaviy shakliga ko'proq murojaat etishlari natijasida mumtoz dostonida voqeliklarni keng ko'lamda ifoda etish imkoniyatlari kengaygan.

Adabiyotlar

1. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 424 б.
2. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. – Т.: Ғ.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 542 б.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Т.: O'qituvchi, 2005. – 270 b.
4. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – 148 б.
5. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. – Т.: Fan, 2006. – 350 b.
6. Творчество Мухаммада Икбала. – М.: Наука, 1982. – 252 с.
7. Қуронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 398 б.